

## DUNYO BO‘YICHA NOAN’ANAVIY GAZ RESURSLARINING TARQALISHI VA ISBOTLANGAN ZAXIRALARI

**Axmedov Xolxo‘ja Raxmatullayevich**

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya:** maqolada noananaviy manbalardagi gaz resurslarining dunyo bo‘yicha tarqalganligi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan, shuningdek, ko‘mirli metan resurslari O‘zbekistondagi ko‘mir konlari xaqida ma‘lumotlar keltirilgan.

So‘nggi yillarda metan resurslarini ahamiyatli hajmi aniqlangan regionlar, O‘zbekistonda ko‘mirning razvedka bo‘lgan zaxiralari haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** butun, ko‘mirli metan, potensial, resurslar, gazgidrat.

**Annotation:** The article provides information on the distribution of non-conventional gas resources around the world, as well as coal methane resources in Uzbekistan.

There are data on the regions where significant methane resources have been identified in recent years, as well as explored coal reserves in Uzbekistan.

**Keywords:** whole, coal methane, potential, resources, gas hydrate.

MEA so‘nggi baholashiga muvofiq texnik olinadigan tabiiy gazning butun dunyo bo‘yicha potensial resurslari 790 trln. m<sup>3</sup>tashkil qiladi. Shundan 328 trln. m<sup>3</sup>noan‘anaviy gaz. Noan‘anaviy gazlarning alohida tiplari bo‘yicha qirqimda eng ko‘p ulushi slanetsli gazlarga to‘g‘ri keladi (200 trln m<sup>3</sup>). Zich jinslardagi gaz resurslari 81 trln m<sup>3</sup>, ko‘mirli metan gazlar – 47 trln m<sup>3</sup>tashkil qiladi. Texnik olinadigan gazlarning hajmi geologik resurslardan kam [1].

Noan‘anaviy gazlarning texnik olinadigan resurslarining regional tarqalishi, an‘anaviy manbalardan yuqori darajada bir tekis tarqalganligi bilan farqlanadi.

Noan'anaviy gazlarning eng ko'p ulushi ATRda (94 trln m<sup>3</sup> yoki barcha noan'anaviy gaz resurslarining 28,7% tashkil qiladi), ikkinchi o'rinda - Shimoliy va Janubiy Amerikaning rivojlangan mamlakatlariga to'g'ri keladi [1].

**Ko'mirli metan.** Dunyoda ko'mir uyumlari 100 ta geologik havzalarda namoyonlangan. Dunyodagi 70 ortiq davlat ko'mir resurslarni sanoat miqyosidagi ahamiyati va ko'mirli metan qazib olish uchun muvofiq potensialga ega (ko'mir qatlamidagi metan – MUP). Ko'mir qazib olish bo'yicha birinchi o'ntalik mamlakatlarga Xitoy, AQSh, Hindiston, Avstraliya, JAR, Rossiya, Indoneziya, Polsha, Qozog'iston va Kolumbiya kiradi. Bu davlatlarning ko'mir qazib olish bo'yicha ulushi dunyo bo'yicha umumiy qazib olinadigan ko'mirning 90 % ni tashkil qiladi. Aynan shu davlatlarga (Kolumbiyadan tashqari) ko'mirli metanning dunyo bo'yicha olinadigan resurslarining 80 % to'g'ri keladi.

So'nggi yillarda metan resurslarini ahamiyatli hajmi Avstraliya, Xitoy va Indoneziyada aniqlangan. Avstraliyada ko'mirli metan gazining eksport qilish maqsadida bir qancha SPG terminallarini qurish ishlari olib borilmoqda. Shuningdek, Indoneziya (Sumatra va Kalimantan orollari) ko'mirli metan gazlarining katta qisimiga ega (13 trln m<sup>3</sup>), Xitoyda ham ko'mirli metan gazi resurslarining katta qismi joylashgan (36 trln m<sup>3</sup>gacha, Xitoy Xalq Respublikasining rasmiy ma'lumotlari bo'yicha olinadigan resurs 10 trln. m<sup>3</sup>).

Ko'mirli metan resurslarini baholash, boshqa noan'anaviy gaz resurslari kabi shartli qiymatlari ulushi yuqoridir. Ko'mirli metanning umumdunyo resurslari ARI 100 trln. m<sup>3</sup>dan 216 trln m<sup>3</sup>gacha baholangan bo'lib, olinadigan resurslar 24 trln m<sup>3</sup>. OOO “Gazprom VNIIGAZ” baholash bo'yicha dunyoda ko'mirli metanning geologik resurslari 200-250 trln. m<sup>3</sup>tashkil qiladi, MEA bo'yicha olinadigan resurslar - 47 trln. m<sup>3</sup>tashkil qiladi. AQSH, Kanada va Avstraliya davlatlarida ko'mirli metan resurslari eng ko'p o'rganilgan.

**Zich jinslaridagi gaz resurslari.** MEA baholashi bo'yicha, zich jinslardagi gaz resurslari 81 trln. m<sup>3</sup>ni tashkil qiladi. Lekin, zarur hajmdagi tadqiqot ishlari yetarli bo'lmaganligi uchun shartli baholangan. Zich jinslardagi gaz resurslari Hindiston,

Xitoy va bir qator Yevropa mamlakatlariga ma'lum. So'nggi vaqtlarda Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikada zich jinslaridagi gazlarga ko'proq e'tibor berilmoqda.

Xitoy Xalq Respublikasining Yer va Tabiiy Resurslar Vazirligining so'nggi baholashi bo'yicha, Xitoy hududida zich kollektorlardagi gazning prognoz zaxirasi 11,95 trln. m<sup>3</sup>ni tashkil qiladi. Suluge va Ordos havzalarida zich kollektorlardagi yirik konlarning maydoni 40 ming km<sup>2</sup>yetadi, prognoz zaxirasi 4 mlrd. m<sup>3</sup>baholangan, razvedka bo'lgan zaxirasi 15 % ni tashkil qiladi. Syuytszyaxe Sichuan havzasidagi konda prognoz zaxira 3,36 trln. m<sup>3</sup>ni tashkil qiladi, razvedka bo'lgan zaxiraning ulushi 12 % ni tashkil qiladi.

Yevropada zich jinslardagi gaz/slanetsli gaz resurslari Vengriyada aniqlangan (Mako Trough koni) bo'lib, olinadigan resurslar 1,1 trln. m<sup>3</sup>baholangan [1].

**Gaz gidratlari.** Bugungi kunda, dunyoda 230 ortiq gazgidrat uyumlari aniqlangan. AQSH geologik xizmati Departamenti (USGS) ma'lumotlari bo'yicha, faqat, Shimoliy Amerika qitasi uchun gazgidratli uyumlardagi gaz resurslari potentsiali bir necha trillion kub futda aniqlangan bo'lib, bu uyumlar seysmik zondlash va chuqur quduqlarni burg'ulash va kern olish, geofizik tadqiqotlarning to'liq kompleksini o'tkazish yo'li bilan aniqlangan. Gazgidratli to'plamlar chuqur suvli dengiz va okean qirg'oq bo'ylarida tarqalgan, bo'lib, ularni global energiya manbayiga aylantirgan.

Yuqorida qayd qilinganidek, ba'zi baholashlar bo'yicha gazgidratli gaz resurslarining 97-98 % dengiz kontinental chegaralarda tarqalgan va 3-2 % quruqlikdagi doimiy muzlik bo'lgan rayonlarda tarqalgan. Arktika gaz gidratlarining tadqiqot ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, doimiy muzlik regionlarida gazgidratli gazlar 130 metrdan 2000 metrgacha chuqurlikda uchraydi. Dunyo okeani maydonining taxminan 10 % potentsial gazgidratli hisoblanadi.

Dengiz kontinental chekkalarida gazgidratlarning mavjudligi, seysmik to'lqin qaytirish gorizontlari anomaliyalari (bottom-simulating reflectors – BSR) bo'yicha aniqlangan bo'lib, qaytgan seysmik to'lqinlar dengiz yuzasidan 100 metrdan 1100 metrgacha chuqurlikda joylashgan gidratli yotqiziqlarning quyi yuzasini belgilagan. Sharqiy va G'arbiy AQSH, Kanada yaqinida, Peru, Kosta-Rika, Gvatemal va Meksika,

Yaponiya qirg‘oqlarida, Meksika bo‘g‘ozida chuqur suvli burg‘ulash orqali gazgidratlari ochilgan. Gazgidratli yotqiziqlar, shuningdek, O‘rtayer, Qora, Kaspiy, Janubiy Xitoy dengizlarida, Kaliforniya, Janubiy Koreya, Hindiston qirg‘oqlarida va boshqa joylarda aniqlangan [3].

Bugungi kunda, gazgidrat to‘plamlarining ko‘pi, ma‘lum bir miqdorda mufassal o‘rganilgan. Bular eng avval Rossiyadagi Messoyax konida, AQShning janubiy-sharqiy Atlantika qirg‘oq bo‘yi Bleyk tizmasida, Kaskadia kontinental chekkasidagi (Kanadaning Tinch okean chekkasi) maydonda, Yaponiya sharqiy qirg‘og‘i Nankay egikligida Makkenzi daryosi quyilishidagi (Kanada) Alyaskaning shimoliy yon bag‘ridagi gazgidrat to‘plarida.

**O‘zbekistonda ko‘mir resurslari.** O‘zbekistonda ko‘mirning razvedka bo‘lgan zaxirasi 1900 mln tonnani tashkil qilib, shundan 1853 mln tonnasi qo‘ng‘ir ko‘mir, 47 mln. tonnasi toshko‘mir. Ko‘mirning prognoz resurslari 5,7 mlrd tonnadan yuqori baholangan. Toshko‘mirning katta zaxirasi janubiy regionlarda – Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlariga tarqalgan. Hozirgi vaqtda, uchta kondan ko‘mir qazib olinmoqda: Angren ko‘mir koni, Sharg‘un va Boysun toshko‘mir konlari.

O‘zbekistonda ko‘mir qazib olish 2020 yilning mart oyidan oldingi oylarga nisbatan 13,4 foizga o‘sgan, 2019 yilning mart oyiga nisbatan esa, 30,8 foizga o‘sgan va 353 ming tonnani tashkil qilgan. (Goskomstat ma‘lumotlari bo‘yicha).

2020-yilning fevral oyida ko‘mir qazib olish, oldingi oylarga nisbatan 18,9 foizga kamaygan, 2019-yilning fevral oyiga nisbatan esa 2,4 foizga o‘sgan, 311,3 ming tonnagacha qazib olingan [2].

## ADABIYOTLAR

1. Институт энергетической стратегии (ЗАО «ГУ ИЭС») Институт проблем нефти и газа РАН Экспертно-консультационный центр «Мировая энергетика» МОСКВА 2013 Мастепанов А.М., Степанов А.Д., Горевалов С.В., Белогорьев А.М.; Нетрадиционный газ как фактор регионализации газовых рынков/ под

общ. ред. д.э.н. А.М. Мастепанова и к.г.н., доц. А.И. Громова – М.: ИЦ «Энергия», 2013. – 128 с.

2. <https://miningwiki.ru/ugol>

3. Трудноизвлекаемая нефть: потенциал, состояние и возможности освоения, Олег Приўепа, Элик Халимов, Нефтегазовая Вертикаль 5/2011

